XALQ DEPUTATLARI XATIRCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 28 - fevral VI-65-26-5-77-K/23 Xatirchi tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 27-, 126-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining, Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi KQ-331-IV-sonli qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qaror va farmoyishlarda belgilangan tadbirlarni hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini mablag‘ bilan ta’minlash maqsadida, tuman hokimligining tuman mahalliy budjetini 2023-yil boshida aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo‘naltirish to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmoyishlarida, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va bayonlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, infratuzilma ob’yektlarini qurish va aholi turmush farovonligini oshirish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar uchun tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshida aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ilovaga muvofiq jami **1828,0 mln. so‘m** mablag‘ ajratilsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (U.Odilov) tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratilgan budjet tashkilotlari va budjetdan mablag‘ oluvchilarning ajratilgan mablag‘lardan samarali

foydalanilishi hamda erishilgan natijalar to‘g‘risidagi hisobotlarini Xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida eshitib borilishini ta’minlasin.

3. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Ro‘zimurodov) 2023-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozini bajarilishini ta’minlasin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyalari budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda budjet intizomiga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish tavsiya etilsin.

5. Ajratilgan mablag‘larning maqsadli ishlatilishi yuzasidan tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Muxammadiyev), tuman Moliya bo‘limi (J.Qahhorov) hamda tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (A.Shirinov)ga nazorat o‘rnatish topshirilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Muxammadiyev) hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Xalq deputatlari Xatirchi tuman Kengashi raisi **S.Nizamov**

Xalq deputatlari Xatirchi tuman Kengashining
2023 yil 28 fevraldagi
VI-65-26-5-77-K/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar

T/r	Tashkilot va muassasa nomi	Maqsadi	Ajratiladigan mablag‘lar (mln.so‘mda)
1	Tuman hokimligi	“Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga (30 foiz)	914,0
		“Yoshlar daftari” jamg‘armasiga (15 foiz)	457,0
		“Ayollar daftari” jamg‘armasiga (15 foiz)	457,0
Jami		**xxx**	**1828,0**